



ƏHMƏD CAVAD SESSİYASI

SALON: 4

12 iyun 2024 çərşənbə – 15.30 – 17.30

Sessiya sədri: Prof. Dr. Elmira MEMMEDOVA-KEKEÇ

Prof. Dr. Elmira MEMMEDOVA-KEKEÇ - Çevre, Savaş və Edebiyat Bağlamında Kıbrıs Rum Şiirlerinin Çözümlemesi

Dos. Dr. Afaq YUSİFLİ - Müşfiq Yaradıcılığında Ənənə və Novatorluq Haqqında

Dos. Dr. Gültəkin ƏLİYEVƏ - Rəşad Macid Şeirələrində Vətənin Mənəvi Tarixi, Vətəndaşlıq Duyğuları

Dr. Ayşe ŞENER - Kırgız Şair Mendi Mamazairova'nın Vatan Temalı Şiirleri Üzerine Bir Değerlendirme

Dr. Tugba GÖNEL SÖNMEZ - Uygur Türklerinin Milli Kimlik İnşasında Nesebname Geleneği

Dr. Aytan ABBASOVA - Yavuz Bahadıroğlunun "Kırım Qan Ağlayır" Romanında Tarixi Gerçəkliklərin Milli İdeallar Kontekstində Təcrüsi

Salih TURAN - Mikail Müşfik'in Şiirlerinde Milli Şuur ve Bağımsızlık Arzusu

Seyfettin ALTAYLI - Həsənoğlunun "Kitabi-Sirətün-Nəbi" Əsərindəki Miqdad Həşiyə Hekayəsinin Lord Raqların "Ənənəvi Qəhrəman Formulası"na Gözə Tədqiqi

Nasiba DJUMANIYAZOVA - Bugungi O'zbek Lirikasida Majoziy Tasvir Usullari

Karlygash ABIYR - M.Мақдасовтың «Райымбек! Райымбек!» Поэмасындағы Көркем Образ Және Күрескерлік Идея

ƏLİŞİR NƏVƏİ SESSİYASI

SALON: 5

12 iyun 2024 çərşənbə – 15.30 – 17.30

Sessiya sədri: Prof. Dr. Ziya AVŞAR

Prof. Dr. Ziya AVŞAR, Habibe FURAT - Ali Şir Neval'in Nesim-Ül Huldü

Prof. Dr. Funda TOPRAK - Seyyid Nesimi ve Ali Şir Nevâyî'de "Gevher/Cevher" Düşüncesi

Prof. Dr. Nazzora BEKOVA, Prof. Dr. Hikmet KORAŞ - Alisher Navoiy Qasidaları: Adabiy Ta'sir va Novatorlik

Проф. Гулжахан ЖУМАНАЗАРОВА - Достонларда Фонетик Такрорнинг Лингвистик Хусусиятлари

Dos. Dr. Natella QULIYEVA, Dr. Zarina RAXMIDDINOVNA - Alisher Navoiy Ijodida Movarounnahr, Xuroson va Hirot Madhi

Saidbaxrom AZIZOV - Alisher Navoiy Asarlarida Astronomik Jihoz Usturlob Tasvifi

Madina ASHIRMATOVA, Varro XOJIMATOVA - Alisher Navoiy Asarlarining Turkiya Adabiyoti va Adabiyotshunosligiga Ta'siri

Natella QULIYEVA, Dots. Zarina SAYLIYEVA - Alisher Navoiy Ijodida Movarounnahr, Xuroson va Hirot Madhi

Ayaulym YERLANOVA - Məşhür Jücein Pöznikası vəne Türki Xalqlarımen Ədebi Bağlılıq Məsələləri

Aigerim TASHEKOVA - Bekmurat Vahdatov'un Folklorik Çalışmalarında Türk Halklarının Sözlü Edebiyatının Özellikleri



**Dear Natella QULIYEVA
Zarina SAYLIYEVA**

We would like to thank you for the supports by sending the articles to the **XI. International Research Symposium on the Turkic World** that will be held in **Baku-Azerbaijan**, in cooperation with Nigde Ömer Halisdemir University (Turkey), Kazakh State Women Teacher Training University (Kazakhstan) and Baku Eurasia University (Azerbaijan), between the dates of **11-13 June 2024**.

The article, entitled as “**ALISHER NAVOIY IJODIDA MOVAROUNNAHR , XUROSON VA HIROT MADHI**” **has been accepted to be published and presented orally** at the **XI. International Research Symposium on the Turkic World** by the evaluation referee committee appointed by the science board. Oral presentation time is determined as to be 10 minutes, questions and answers session is set to be 5 minutes.

We are looking forward to your participations in order to make a presentation at **XI. International Research Symposium on the Turkic World** and we wish you success in your works.

Sincerely Yours.

Travel and accommodation expenses will be covered by the participant.

Symposium location: Baku Eurasia University, Baku-Azerbaijan.

**Prof. Nazim HÜSEYNLİ
Rektor**

ALISHER NAVOIY IJODIDA MOVAROUNNAHR, XUROSON VA HIROT
MADHI

THE PRAISE OF MOVAROUNNAHR KHUROSON AND HIRAT IN THE
LITERATURY CAREER OF ALISHER NAVOI

ƏLİŞƏR NƏVAINİN YARADILIŞINDA MÖVƏROUNNƏHR, XURASON VƏ HIROT
MƏDİ

Natella Quliyeva - (Ozarbayjon),
Baku Avrasiya davlat universiteti dissertanti
Sayliyeva Zarina Raxmiddinova- (O'zbekiston)
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: zsayliyeva7@gmail.com

Annotatsiya: Navoiy uchun kenglik Hirotdan boshlangan. Shoir ruhida tug`yon urgan vatanparvarlik tuyg`ularining sarmanzili ham beqiyos Hirotdir. Navoiygacha Vatanni turli shaklda ta'riflaganlar bor. Ammo Navoiy o'z asarlarida vatan va farzandning munosabatlarini mohirona, o'zgacha tasvirlagan. Navoiy madh etgan va jonidan aziz ko'rgan yurt - Movarounnahr va Xuroson edi. Mazkur maqolada ayni shu masala yoritilgan.

Abstract: The latitude for Navoi started from Herat. Herat was also an incomparable source of patriotic feelings in the poet's soul. Before Navoi, there are those who defined Vatan in different ways. However, Navoi skillfully and uniquely described the relationship between motherland and child in his works. The land that Navoi praised and loved dearly was Movarounnahr and Khurasan. This article covers the same issue.

Xülasə: Nəvai üçün enlik Heratdan başlayır. Herat həm də şairin ruhunda vətənpərvərlik hisslərinin misilsiz mənbəyi idi. Nəvaidən əvvəl Vətəni müxtəlif cür təyin edənlər var. Lakin Nəvai öz əsərlərində vətən-övlad münasibətini məharətlə və bənzərsiz təsvir etmişdir. Nəvainin təriflədiyi və çox sevdiyi diyar Movarounnəhr və Xorasan idi. Bu məqalə eyni məsələni əhatə edir.

Kalit soʻzlar: Navoiy, Hirotd, vatanparvarlik, Hirotd, Movarounnahr, Xuroson,

Samarqand, «Xamsa».

Keywords: Navoi, Herat, patriotism, Herat, Movarounnahr, Khorasan, Samarkand, "Khamisa"

Açar sözlər: Nəvai, Herat, vətənpərvərlik, Herat, Movarounnəhr, Xorasan, Səmərqənd, "Xəmsə".

Navoiy uchun kenglik Hirotdan boshlangan. Shoir ruhida tugʻyon urgan vatanparvarlik tuygʻularining sarmanzili ham beqiyos Hirotda edi. Navoiygacha Vatanni turli shaklda taʼriflaganlar bor. Ammo Navoiy oʻz asarlarida vatan va farzandning munosabatlarini mohirona, oʻzgacha tasvirlagan. Navoiy madh etgan va jonidan aziz koʻrgan yurt - Movarounnahr va Xuroson edi.

Amudaryoning ikki tomonida joylashgan bu koʻhna oʻlkalar, undagi Samarqand va Hirotda shoir hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy Sharqning eng goʻzal va maftunkor shaharlaridan sanalgan Hirotda deb atalmish yurtda tugʻilib, voyaga yetadi. Xuddi mana shu diyorda vatanga boʻlgan sevgini tuyadi va umrining oxirigacha yurtining ozodligi, ravnaqi, gullab-yashnashi uchun xizmat qiladi. Ruhida tugʻyon urgan vatanga boʻlgan sevgini u oʻz asarlariga singdirgan.

Alisher Navoiy oʻz vatani Xurosonni, tugʻilib oʻsgan shahri Hirotni gʻoyat samimiy muhabbat bilan sevar edi. Uning bu oʻlkani madh etib yaratgan misralari gʻoyat dilbar va ohangrabodir. "Hayratul-abror"ning 19-maqoloti Xuroson va Hirotda tavsifiga bagʻishlangan. "Xamsa"ning yakunlovchi dostoni "Saddi Iskandariy"da ham 35-bob Xuroson va Movarounnahr taʼrifiga bagʻishlangan.

"Hayratul-abror"da shoir dastavval falak va zamin taʼrifidan soʻz ochadi. Osmonda yetti falak mavjud boʻlib, ularning har birini bir yoritgich nurafshon etib turadi. Uchtasi yuqori, uchtasi quyida. Ularning oʻrtasida esa toʻrtinchisi har ikki tomonga mashʼala boʻlib nur taratadi. Xuddi shunga oʻxshab jahon ham yetti iqlimga boʻlinadi. 4-iqlim osmondagi 4-charxdan yaratilgan. Alisher Navoiy Xuroson oʻlkasini ana shu 4-iqlimdir, deb izohlaydi. Bu oʻlka ziynatda jannat

Samarqand, «Xamsa».

Keywords: Navoi, Herat, patriotism, Herat, Movarounnahr, Khorasan, Samarkand, "Khamsa"

Açar sözlər: Nəvai, Herat, vətənpərvərlik, Herat, Movarounnəhr, Xorasan, Səmərqənd, "Xəmsə".

Navoiy uchun kenglik Hirotdan boshlangan. Shoir ruhida tugʻyon urgan vatanparvarlik tuygʻularining sarmanzili ham beqiyos Hirotda edi. Navoiygacha Vatanni turli shaklda taʼriflaganlar bor. Ammo Navoiy oʻz asarlarida vatan va farzandning munosabatlarini mohirona, oʻzgacha tasvirlagan. Navoiy madh etgan va jonidan aziz koʻrgan yurt - Movarounnahr va Xuroson edi. Amudaryoning ikki tomonida joylashgan bu koʻhna oʻlkalar, undagi Samarqand va Hirotda shoir hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy Sharqning eng goʻzal va maftunkor shaharlaridan sanalgan Hirotda deb atalmish yurtda tugʻilib, voyaga yetadi. Xuddi mana shu diyorda vatanga boʻlgan sevgini tuyadi va umrining oxirigacha yurtining ozodligi, ravnaqi, gullab-yashnashi uchun xizmat qiladi. Ruhida tugʻyon urgan vatanga boʻlgan sevgini u oʻz asarlariga singdirgan.

Alisher Navoiy oʻz vatani Xurosonni, tugʻilib oʻsgan shahri Hirotni gʻoyat samimiy muhabbat bilan sevar edi. Uning bu oʻlkani madh etib yaratgan misralari gʻoyat dilbar va ohangrabodir. "Hayratul-abror"ning 19-maqoloti Xuroson va Hirotda tavsifiga bagʻishlangan. "Xamsa"ning yakunlovchi dostoni "Saddi Iskandariy"da ham 35-bob Xuroson va Movarounnahr taʼrifiga bagʻishlangan.

"Hayratul-abror"da shoir dastavval falak va zamin taʼrifidan soʻz ochadi. Osmonda yetti falak mavjud boʻlib, ularning har birini bir yoritgich nurafshon etib turadi. Uchtasi yuqori, uchtasi quyida. Ularning oʻrtasida esa toʻrtinchisi har ikki tomonga mashʼala boʻlib nur taratadi. Xuddi shunga oʻxshab jahon ham yetti iqlimga boʻlinadi. 4-iqlim osmondagi 4-charxdan yaratilgan. Alisher Navoiy Xuroson oʻlkasini ana shu 4-iqlimdir, deb izohlaydi. Bu oʻlka ziynatda jannat

bog`laridan afzal, 4-falakdan ham kengroq, 7-osmondan ham yuksakroq rutbaga egadir. Uning tog`lari osmonga mag`rur qad ko'targan. Tog`lar bag`rida esa ne-ne javohir konlari mavjud. Tuprog`i boy, sabzalariga osmon gulshani rashk qiladi. 7 falak boyligining xazinasi, 7 iqlim tan bo'lsa, Xuroson uning ko'ksidir. Shoir o'z vatanining tog`lari, dashtlari, serquyosh fasllarining oltin jilolarini otashin muhabbat bilan kuylaydi. Hirot bog`larining har biri jannat misolidir. Ularda daraxtlar yuz turfa meva bilan to'lgan.:

Ziynati andoqki, badan paykari,
Vus`ati andoqki, ko'ngil kishvari.

Aytma kishvar, deki bog`i Eram,
Dema bog`i Eram, aytki Baytulharam [2, 307].

Shoir shaharning ma`naviy hayotini ham tasvirlaydi. Hirot xonaqolari, madrasalarini ta`rif etadi. Ularni yaratgan muhandislar va u yerda ta`lim beruvchi mudarrislarni ta`riflaydi. Qushlar "sabzau gul uzra xiromondir."

Sahnida yuz gul chiqorib bir yig`och,
Har gulining atri borib bir yig`och[2, 312].

Bu baytda juda o'rinli ishlatilgan so'z o'yini mavjud. Birinchi misradagi "yig`och" daraxt ma`nosida, ikkinchi misradagisi esa masofa ma`nosida kelgan. Demak, sahnida har bir daraxt yuz gul chiqaradi. Har gulining xushbo'y hidlari bir yig`och yerga yoyiladi, deb shoir bahor payti daraxtlar gullagan mavsumdagi shahar husnini tasvirlaydi. Hirot shahrining geografik mavqei, uni o'rab turgan daryolar ham go'zal tasvirlangan. Shaharning janubida bir necha kichik anhorlar oqadi. Ular to'lqinlangandagi huboblari osmon gumbazini eslatadi. Shimoliy tomonida esa ikkita katta daryo uni suvga serob etadi.

"Hayratul -abror"dagi Hirot madhiga doir so'zlarni o'qigan kishi o'zini husni chiroyda tengsiz, ob-havosi dilkash, bahoriy liboslar bilan bezangan, dala bog`lari qushlar xonishidan uyg`oq xayoliy bir shahar quchog`ida turganday

tasavvur etishi mumkin. Bu ma`rifat maskanidan dilga go'yo nur yog`adi. Navoiy g`azallaridan birida vatanni "hayot mulki" deb ta`riflaydi.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy Hirotni jon o'rnida ko'rgan. Xuroson elining joni yanglig` uni e`zozlagan. Navoiy "Saddi Iskandariy"da yozadi:

Xuroson badandir, Hiri, jon anga,
Hiri jon, badandir Xuroson anga [4, 237] .

Navoiy o'zining jonajon Hirotni bilan faxrlangan. Hirotni ahli ham uni e'zozlagan:

Navoiy, aysh uchun dayru riyozat chekkali Ka'ba,
Gar istarsan, bu ikki ishga yo'qtur yer Hiri yanglig'.

Jahondagi eng nomdor shaharlar qatori uning tarixi, kelajagi faxrli mavqelarda xotirlanishini istagan. Tarixchilarning guvohlik berishicha, Hirotni shahri qachon va kim tomonidan bunyod etilganligi noma'lum. Ammo uning qanday bunyod etilganligi haqida turli rivoyatlar mavjud. Shulardan biri afsonaviy Zaxxonning qiziga tegishli. Go'yo o'sha qiz Hirotni barpo ettirgan va unga o'z nomini bergan. Boshqa rivoyatlarga binoan, Hirotni Eron shohi Doro qurdirishni boshlagan, ammo jahongir Iskandar qo'shinlari tufayli bu ishni tugata olmagan. Yana bir rivoyatda: "Iskandar Hirotni qurdirgan" - deyiladi. Albatta, bu rivoyatlardan Navoiyning xabari bo'lgan. Ammo Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarga nisbat bergan. Iskandar Xurosonga kirib kelgach, bu o'lkaning go'zalligidan hayratda qoladi va shahar qurishni buyuradi. Bu shaharga u "ahli donish"- Hirotni deb nom beradi.

Chu mazkur etib ahli donish ham ot,
Pisand aylamay xotiri juz Hirotni.
Chu bu lafzg'a iltifod aylabon,
Hamul shahar otin Hirotni aylabon [4, 237]

Navoiy o'z yurtini shunchalik sevganki, hatto Vatani uchun jonidan ham kechishga tayyor bo'lgan. Vatanni sevish, uni ertangi kuni uchun qayg'urish, uning uchun jondin kechish, ravnaqi uchun kurashish - vatanparvarlikdir.

Navoiyning e`tiqodicha, vatan yagona, vatan daxlsiz dunyo, uni tark etish mumkin bo'lmaganidek, yurtni zolim bosqinchilar qo'lga topshirmoq ham

kechirilmas qabohatdir. "Farhod va Shirin" dostonidan:

Ayonkim vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor[3, 92].

"Saddi Iskandariy" dostonida ham xuddi shu tuyg`uning o'zgacha ifodasiga duch kelamiz:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g`urbat havas aylama.

Vatan shunday ulug' maskanki, bu go'shani hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Vatandan tashqarida vatan yo'q. Mana shuning uchun ham inson faqat jonajon yurtida o'zini mag'rur, tinch, erkin, xotirjam his qilishi mumkin. Vatanni sevish bu e'tiqod va iymonni uyg'oqligidir. Jamiki insoniy fazilatlarning onasi - Vatan. O'z diyorida insonning qo'rqishga, bosh egib yashashga haqqi yo'q. Chunki bu Vatanga munosib bo'lolmaslik sharmandalikdir. Vatanni sevgan insonni hech bir yovuz kuch, hech qanday jallod ham yenga olmagan. Chunki Vatanga bo'lgan sevgini hech narsa yo'qota olmaydi. Vatanga bo'lgan sevgi insonning g'ururi timsolidir. Bunday g'ururni hech narsa mag'lub qila olmaydi. Vatanni sevish burchdir. Tarix, til, ma'naviyat, madaniyat, xalq, tabiat bularning barchasini umumlashtirib Vatan deymiz. Agar til, tarix kamsitilsa, Vatanning kelajagida xatar sezadi. Vatan toptalsa, Vatanning bag'ri jarohatlanadi. Bularni fahmlamoq zarur. Bunday yovuzlikka, qaboxatga qarshi kurashmoq darkor. Vatanni sevmoq insonning hayot-mamot masalasi bo'lmog'i kerak. Go'yo otanasi qalbida nima borligini sezganday, hatto undan ham ortiq Vatanni dilida nima borligini bilishi kerak. Insoniy kamolotning poydevori mana shundan boshlanadi. "Barkamol va sog'lom qallda, - deydi V.G.Belinskiy, - Vatan taqdiri mumtoz o'rinni ishg'ol etadi, har qanday olijanob shaxs vatan bilan qon-qarindoshligini, u bilan o'zi orasidagi muqaddas bog'lanishni teran anglaydi"[1,37].

Alisher Navoiy ana shunday jism-u joni bilan Vatanni seva oladigan buyuk

yurak sohibi edi. Bu masalada yoshlarimiz bobokalonimiz Alisher Navoiydan o'rnak olsalar arziydi.

Adabiyotlar.

1. Bekova N. NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G 'AZALLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI //Academic research in educational sciences. 2023. T. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 114-121.
2. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. "Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
3. Bekova N. Alisher Navoiy adabiy tadqiqida faxriy hirotiy" radoyif ulash'or" asarining o'rni //Alisher Navoi and 21 st century. – 2024. – Т. 1. – №. 1.
4. Bekova N. NAVOIYNING "NAVODIR USH-SHABOB" DEVONI NASHRLARIDAGI TARJE'BANDLARNING MATNIY TAFOVUTLARI VA ULARNING G 'OYAVIYBADIY TAHLILI: Nazora Bekova, BuxDU dotsenti Shahlo Halimova, BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi magistri //Научно-практическая конференция. – 2021.
5. Bekova N. J. "G 'AROYIB US-SIG 'AR" DEVONI TARKIBIDAGI BIR G 'AZAL TAHLILI: Nazora Jo 'rayevna Bekova Buxoro davlat universiteti o 'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Zarina Raxmiddinova Sayliyeva Buxoro davlat universiteti o 'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o 'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
6. Nazora J. B. Potential of language and artistic art //POLISH SCIENCE JOURNAL (2019). – 2019. – Т. 63.
7. Бекова Н. Алишер Навоий шеъриятида хамд поэтикаси // Тошкент: Фан. – 2006. – Т. 148.
8. Jurayevna B. N., Nuriddinova X. N. Alisher Navoi's Interpretation Of Asmai Husna In Bilingual Poetry //Journal of Positive School Psychology. –